XATIRCHI SOVETLAR BOSHQARUVI DAVRIDA: TUMANNING TASHKIL TOPISHI VA IJTIMOIY RIVOJLANISHI

Botirov Nodir Sadir o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu tezis hozirgi Navoiy viloyatidagi qadimgi maskanlardan biri bo'lgan Xatirchi tumanini kelib chiqishi qadimda qanday nomlar bilan atalgani ijtimoiy-iqtisodiy ,madaniy hayoti haqida yoritilgan. Aslida Xatirchi Turon zaminning juda qadim,necha asrlar qa'riga borib tutashuvchi ulkan tarix silsilasida uning qatiga yashiringan durru javohirdek ko'zga tashlanavermaydi. Faqat uning o'tmishini farzandlik mehri bilan sinchiklab o'rganmoq zarur. Samarqand va Buxoroni ikki qo'lida tutashtirib turgan bu yurtning tarixi ular kabi juda qadimiydir*.

Kalit so'zlar: *Xatirchi, tarix, Navoiy, Miyonqol muzofoti, Kushoniya bekligi, beklik, volosi, kent.*

Kirish: Tarix erta-bugun va kelajakni birlashtira oladigan yagona kuch. Tarix insoniyatni uzoq o'tmishidan to bugungacha bo'lgan davrni o'zida jamlagan fan. Unda insoniyatning asrlar davomida rivojlanib borgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, moddiy va madaniy davlat qurilish sohasidagi tajribalarini o'rganadi.

Asosiy qism: Xatirchi tumani — Navoiy viloyatidagi tuman. 1926-yil 29-sentyabrda tashkil etilgan. Ushbu hudud So'g'diyona, Kushon, Turon, Movarounnahr, Turkiston, Miyonqol va yana bir qancha xonlik, podsholik hamda amirliklar nomi bilan atalib kelgan.

Tuman hududi ham keyingi ming yil ichida Miyonqol muzofoti, Kushoniya bekligi, Xatirchi viloyati, Xatirchi bekligi, Xatirchi volosti, tumani, kenti va Xatirchi rayoni deb yuritilgan.

Xatirchi tumani O'zbekistonning dastlabki 79 tumani qatorida rasman 1926-yil 29-sentabrda tashkil topgan. 1920-21-yillarda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tarkibida viloyat, 1922-24-yillarda Karmana viloyatida uezd, 1925-26-yillarda

Karmana uezdining volosti, 1927-30-yillarda Zarafshon okrugida rayon, 1938-yilgacha respublikaga bo'ysunuvchi rayon, 1938-yilda yangidan viloyatlar tuzilgach, 1982-yil 20-aprelgacha Samarqand viloyatining,so'ngra 1989-yil sentabr oyigacha yangi tashkil etilgan Navoiy viloyatining tarkibida bo'ldi.

1989-yilda Navoiy viloyati tarqatib yuborilgach, yana Samarqand viloyatiga qo'shildi. 1992-yildan boshlab qayta tashkil etilgan yangi Navoiy viloyatining yirik dehqonchilik-sanoat tumanlaridan biri bo'lib kelmoqda. Jo'g'rofiy joylashuviga ko'ra, Xatirchi tumani shimoldan va shimoli-g'arbdan viloyatning Nurota, g'arbdan Navbahor tumanlari bilan, janubdan Zarafshon daryosi orqali Samarqand viloyatining Paxtachi va Narpay tumanlari, janubi-sharq va sharqdan Kattaqo'rg'on hamda shimoli-sharqdan Qo'shrabot tumanlari bilan chegaradosh. Tumanning yer maydoni 1389 kv km, aholisi 148000 kishidan ortiq. Xatirchining tarixi esa bevosita ana shu yuqorida nomlari zikr etilgan ulug' allomalar, qolaversa ularga tengdosh, zamondosh bo'lgan, buyuk davlat arbobi va sarkarda, Sohibqiron Amir Temur va undan keyingi xonliklar, amirliklar bilan bog'liqdir.

Bundan tashqari keksa kishilarning og'zaki hikoyalariga asoslanib, ba'zi bir tarixiy voqealar, geografik va biologik tadqiqotlarga asoslanib shuni dadil aytish mumkinki, bu nom – “Xatirchi” – “Xatarli” so'zining davrlar o'tishi bilan talaffuz tarzining o'zgarishi tufayli hozirgi holatga yetib kelgan ko'rinishidir.

Negaki, bu joy o'rni, aniqrog'i tuman markazining mustaqillik va ayniqsa, Samarqand ko'chasi (hozirgi Ergash Qurbonov ko'chasi) ning janubiy tomonlari o'rnida 80 - 100 yillar avval botqoqlik, qamishzor, to'qayzor hamda chakalakzorlar bo'lib, unda yovvoyi hayvonlardan to'ng'iz, bo'rsiq, bo'ri, tulki, to'qay mushugi, qoplon va hatto Turkiston yo'lbarsi ham uchrashi mumkin edi.

Tuman sanoatining rivoj topishi 1933-yilda shu tumanda „Paxtakor“ (hozirda „yangi hayot“ gazetasi bosmaxonasi asos solinishiga borib taqaladi. Usmon Ernazarov

bosmaxona direktori bo‘lgan. O‘sha paytlarda gazetani chop qilish, qog‘oz kesish, harf terish kabi ishlar qo‘lda qilingan.

Langarning kon o‘laroq shakllanish tarixi tuman iqtisodiyotida alohida o‘rin tutgan. Tumanda 2004-yilgi holatga ko‘ra, 2,1 ming korxona ro‘yxatga olingan. 55 kichik, 32 o‘rta, 109 yirik korxona, mikrofirmalar faoliyat ko‘rsatadi. Xatirchi tumanida „LangarUzRos“ qo‘shma korxonasi ishlab turibdi (2003). Xatirchi paxta tozalash zavodi, non kombinati, qurilish tashkilotlari, MTP va boshqa bor. Qishloq xo‘jaligi, asosan, paxtachilikka ixtisoslashgan. Tumanda 300 ga yaqin dehqon, 907 fermer, 17 shirkat xo‘jaliklari mavjud (2003). Ekin maydonlariga paxta, don, ozuqa, kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari ekiladi. Shu jumladan, 12,3 ming gektar yerda paxta, 10,3 ming gektar yerda g‘alla yetishtiriladi (2004). Bog‘dorchilik (bodom, yong‘oq, anor, o‘rik, anjir va boshqalar), tokchilik rivojlangan. 19,9 ming gektar yer o‘rmonzor (2004). Tutzorlar ham bor. Ipakchilik bilan shug‘ullaniladi.

Tuman jamoa va shaxsiy xo‘jaliklarida 56,8 mingga yaqin qoramol (shu jumladan, 33,1 mingdan ziyod sigir), 86,7 mingga yaqin qo‘y va echki, 38 mingga yaqin parranda, 853 yilqi boqiladi (2003).

Tumanda 85 umumiy ta’lim maktabi (44 mingga yaqin o‘quvchi), shu jumladan, 1 litsey (245 o‘quvchi), bolalar musiqa va san’at maktabi, 4 kasb-hunar kolleji (2000 dan ziyod o‘quvchi), 23 klub muassasasi, 35 kutubxona, muzey, madaniyat va istirohat bog‘i, madaniyat saroyi ishlab turibdi (2004).

Xatirchi tumanida markaziy stadion, bir qancha sport inshootlari, sport maydonlari va sport zallari faoliyat ko‘rsatadi.

Markaziy kasalxona, tug‘ruqxona, poliklinika, qishloq shifokorlik punktlari, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalarda 244 vrach xizmat qiladi. Tumanda Oltinsoy sanatoriysi mavjud. Tuman markazi bilan Navoiy shahri o‘rtasida avtobus qatnaydi. „Xatirchi hayoti“ tuman gazetasi (avvalgi „Yangi Hayot“) 1998-yildan nashr qilinadi (adadi 7300 ga yaqin).

Xulosa: Umuman olganda, Xatirchi Navoiy viloyatining boy qadimiy tarixga ega ekanligini, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-madaniy hayotida alohida o'ringa ega ekanligi barchaga ma'lum. Ammo, bu hududda ko'plab noma'lum tarixiy siymolar qadamjolari mavjud, shuningdek, tumanning yanada iqtisodiy va ijtimoiy rivoji uchun ham keng imkoniyatlar bo'lib, bularni amalga tatbiq etish istiqbollari bugungi kunda ko'plab izlanishlar olib borilishini taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1 **"**O'zbekistonning eng yangi tarixi" darslik Farg'ona 2023.

2. ttps://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_milliy_ensiklopediyasi

3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.12-jild-Toshkent: O'zME,2006.B.385-386.